



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

TO‘G‘RI BICHIMLI YUBKANI TIKISH VA MODELLASHTIRISH MAVZUSINI GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANIB O‘QITISH METODIKASI

Ergasheva Dilyora

Navoiy davlat universiteti Texnologik
ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs D-guruh talabasi

S. N. Hamroyeva

Ilmiy rahbar, Navoiy davlat universiteti dotsenti

Anotatsiya:

Mazkur maqolada grafik organayzerlardan foydalangan holda to‘g‘ri bichimli yubkani tikish va modellashtirish jarayonini o‘qitishda grafik organayzerlardan foydalanishniung samarali usullari yoritilib berilgan. Grafik organayzerlar o‘quvchilarning bilimlarini yanada yaxshi o‘zlashtirishda, tizimlashtirishda, ijodiy fikrlashini yanada rivojlantirishda va hamda amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashda katta xizmat ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: To‘g‘ri bichimli yubka, modellashtirish, tikuvchilik, grafik organayzer, metodika, ta‘lim jarayoni.

Hozirgi kunda zamonaviy ta‘lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini yanada rivojlantirish, amaliy ko‘nikmalarini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblaniladi. Tikuvchilik darslarida va hamda to‘g‘ri bichimli yubkani tikish va modellashtirish mavzusini o‘rgatishda innovatsion metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikni beradi. Ushbu metodlardan biri grafik organayzerlardir.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

To‘g‘ri bichimli yubka-tikuvchilikda eng sodda va asosiy kiyin turlaridan biri hisoblaniladi. Uni tikish albatta birin ketinlik bilan ya‘ni bosqichma bosqich amalga oshiriladi. Ular quydagilardan iboratdir:

- O‘lcham olish
- Andoza tayyorlash
- Matoni bichish
- Tikish va yig‘ish
- Bezash

Yubka ayollar kiyimining eng qadimiy turlaridan biri hisoblanadi. Uning dastlabki ko‘rinishlari qadimgi Misr, Gretsiya va Rim davrlariga borib taqaladi. Bu davrlarda yubka belga o‘ralgan mato yoki oddiy shakldagi kiyim sifatida ishlatilgan. O‘rta asrlarda yubkalar uzun, keng va ko‘p qavatli bo‘lib, asosan ayollarning ijtimoiy mavqeini ifodalagan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning jamiyatdagi faolligi ortishi bilan yubkalar soddalashib, qulay shakllar paydo bo‘ldi. Shu davrda to‘g‘ri bichimli yubka modeli shakllanib, kundalik va ish kiyimi sifatida keng tarqaldi. Bugungi kunda to‘g‘ri bichimli yubka o‘zining qulayligi, soddaligi va modellashtirish imkoniyatlarining kengligi bilan zamonaviy modada muhim o‘rin egallaydi.



1.1.4-rasm. To‘g‘ri bichimli yubkaning klassik ko‘rinishi



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Rasmda to‘g‘ri bichimli yubkaning klassik modeli tasvirlangan. Yubka bel qismida vitochkalar yordamida shakllantirilgan bo‘lib, pastga tomon to‘g‘ri tushadi. Ushbu model soddaligi, qulayligi va turli kiyimlar bilan uyg‘unlashish imkoniyati bilan ajralib turadi. Rasm to‘g‘ri bichimli yubkaning zamonaviy modadagi ahamiyatini va amaliy qo‘llanilishini ifodalaydi.

Belli kiyimlarga yubkalar, shimlar, shortik, lozim, yubka -shimlar kiradi. Yubkalar bichimiga ko‘ra: to‘g‘ri bichimli, etagi kengaygan bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri bichimli yubkalar o‘z navbatida: to‘g‘ri bichim, etagiga toraygan, etagiga bir oz kengaygan shakllarga ega bo‘ladi. Bunday yubkalar shaklini beldagi burmalar, gir aylanma taxlamalar, koketkali yubkalar hisobiga hosil qilish mumkin. Etagi kengaygan yubkalarga: bo‘lakli va quyosh, yarim quyosh yubkalar kiradi. Yubkalarni bezak baxyaqator, tasma, tugmacha kashtalar va hokazolar bilan bezash mumkin. Yubka taqilmasiga “molniya” tasma, ilgak, tugmalar bilan ishlov berish mumkin. To‘g‘ri bichimli yubka ayollar kiyimlari orasida eng sodda, qulay va universal modellardan biri hisoblanadi.

Ushbu yubka turi bel qismidan pastga tomon to‘g‘ri tushuvchi siluetga ega bo‘lib, tananing tabiiy shaklini saqlagan holda harakatlanish uchun qulaylik yaratadi. Uning konstruksiyasi oddiy bo‘lib, kundalik, ish va rasmiy kiyim sifatida keng qo‘llaniladi.



1.2.1-rasm. To‘g‘ri bichimli yubka rasmi.




Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

To‘g‘ri bichimli yubkaning asosiy konstruktiv elementlariga bel chizig‘i, yon choklar, old va orqa vitochkalar hamda etak qismi kiradi. Vitochkalar yubkaning bel qismida tanaga mos tushishini ta‘minlaydi, etak qismi esa tekis va silliq ko‘rinishga ega bo‘ladi. Yubkaning uzunligi tizzagacha, tizzadan past yoki maksimal uzunlikda bo‘lishi mumkin.



1.2.2-rasm. To‘g‘ri bichimli yubkaning asosiy konstruksiyasi

Mazkur yubka modeli turli xil gazlamalardan – paxta, jun, viskoza, sintetik va aralash tolali matolardan tikilishi mumkin. Tanlangan gazlama turiga qarab yubkaning tashqi ko‘rinishi, tushishi va foydalanish qulayligi o‘zgaradi. To‘g‘ri bichimli yubka oddiy modellashtirish usullari yordamida kesma, yoriq, belbog‘, cho‘ntak va bezak elementlari bilan boyitilishi mumkin.



1.2.3-rasm. To‘g‘ri bichimli yubka modellashtirish usullari.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Soddaligi va universalligi sababli to‘g‘ri bichimli yubka tikuvchilik ta‘limida asosiy model sifatida o‘rgatiladi. U kiyim konstruksiyasining asosiy qoidalarini o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, keyingi murakkab modellarni yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bu jarayonlarni o‘quvchilarga tushuntirishda tartib va asosan ketma ketlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Modellashtirish – bu asosiy andoza asosida kiyimning shaklini o‘zgartirish, unga yangicha dizayn va bezaklar berish jarayonidir. To‘g‘ri bichimli yubkani modellashtirish orqali:

- Yubka uzunligini o‘zgartirish
- Choklar, yoriqlar qo‘shish
- Bel qismini turlicha bezash
- Keyngaytirish yoki bo‘lmasa toraytirish

Kabi o‘zgartirishlarni amalga oshirsak bo‘ladi.

Grafik organayzer- ma‘lumotlarni o‘quvchilar visual ya‘ni, ko‘zlari bilan ko‘rib tushinishlariga yordam beradigan, osonlashtiradigan vosita. Ularga quyidagilar kiradi:

- Klaster
- Venn diogramma
- Jadval
- Baliq skleti
- T- sxema

Grafik organayzerlar murakkab jarayonlarni ham soddalashtirib osonlashtirib tushuntirishga yordam beradi.

Grafik organayzerlardan foydalanish metodikasi kaster usulini:

Bu usulni qo‘llashda dars boshida “To‘g‘ri bichimli yubka” mavzusi doska markaziga joylashtiriladi va unga tegishli bo‘lgan tushunchalar mato, andoza,



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

bezak, tikish kabi sozlar atrofiga joylashtiriladi. Bu usul asosida o'quvchilarning mavjud bo'lgan bilimlarini aniqlaymiz.

T- Sxema:

Bu usuldan foydalanishda "To'g'ri yubka" va hamda "Modellashtirilgan yubkani" bir biridan farqini ko'rib o'tiladi ya'ni solishtirishdas qo'llaniladi. Bu usul orqali o'quvchilar 2 xil yubkani farqini va o'xshashliklarini aniqlaydilar.

Ketma - ketlik jadvali: Bunda tikish bosqichlarini tartib bilan birin ketin ko'rsatib berishda samarali rol o'ynaydi.

1. O'lcham olish
2. Mato tanlash
3. Andoza chizish
4. Gazlamaga joylashtirish
5. Bichih
6. Tikish

Ushbu bosqichlarni birin ketin bajarganda sifatli va chiroyli kiyim tikish mumkinligini bilib olishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, to'g'ri bichimli yubkani tikish va modellashtirish jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish o'quvchilarning bilimini chuqurlashtiradi, ularning mantiqiy fikrlashini va ijodiy fikrlashini yaxshi rivojlantiradi. Ushbu metodikalar dars samaradorligini oshirishga katta yordam beradi va muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayidahmedov N . Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya 2003
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Texnologiya fani o'quv dasturi va metodik tavsiyalar.- Toshkent.2023



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

-
3. Nurmatov Sh. Texnologiya fanini o'qitish metodikasi - Toshkent: Fan va texnologiya, 2021
 4. D. E. Ergasheva. S. N. Hamroyeva Learning methodology for sewing and modeling a straight-cut skirt based on the STEAM education system. Hosted Online from Berlin, Germany. Date: 2nd March, 2026
 5. The importance of the virtual laboratory in the training of future physics teachers through the stem education program. SN Khamroeva - Ethiopian International Journal of Multidisciplinary ..., 2023